

MUMTOZ KUY VA ASHULALAR VOSITASIDA MAKTAB O'QUVCHILARINI MUSIQIY ESTETIK TARBIYALASH USULLARI

Axtamov Izzat Ikromovich

axtamovizzat@gmail.com

Buxoro davlat pedagogika instituti

Musiqqa ta'limi va san'at 7- muz 22 -1-kurs magistranti.

Ilmiy rahbar: **Yarashev Jo'rabet To'rayevich, Ph.D**

ANNOTATSIYA: Maqolada umumta 'lim maktab o'quvchilarini ahloqiy-estetik shakllantirish va yetuk kadr qilib yetishtirish masalalari haqida fikr yuritilgan. Bunda musiqaning o'rni va o'quvchilarining ongiga tarbiya elementlarini musiqqa vositasida singdirish, tarbiya jarayonida musiqaning roli ochib berilgan. Bundan tashqari maqolada o'zbek mumtoz musiqasi namunalari va ularga doir umumnazariy tafsilotlar atroflicha mulohaza qilingan. Shuningdek, yoshlar tarbiyasida o'zbek mumtoz musiqasining o'rni, axamiyaati muxokama qilingan.

Kalit so'zlar: musiqqa, tarbiya, ruhiyat, ong, ta'lim jarayoni, ohang, axloq, mumtoz musiqqa, ijod, namuna, tarbiya, uslub, usul, namuna, ta'lim, ochiq ovoz.

ABSTRACT: The article discusses the issues of moral-aesthetic formation of general education school students and raising them as mature staff. In this, the role of music and instilling the elements of education into the minds of students through music, the role of music in the process of education is revealed. In addition, examples of Uzbek classical music and general theoretical details about them are discussed in detail in the article. Also, the role and importance of Uzbek classical music in youth education was discussed.

Key words: music, education, spirituality, consciousness, educational process, melody, morality, classical music, creativity, example, education, style, method, model, education, open voice.

KIRISH

Komil insonni musiqiy tarbiyalash va voyaga yetkazish jarayoni - musiqiy pedagogik faoliyatning uzluksiz jarayoni bo'lib, axborot texnologiyaning so'nggi namunalari doirasida amalga oshiriladigan hamda tarbiyanuvchilarning ijobil fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadlariga qaratilgan tashkiliy faoliyatdan iborat. Bu faoliyatda musiqqa o'qituvchi musiqiy tarbiyaviy jarayonning

asosiy xususiyatlarini bilishi kerak. Ma'lumki, inson kamolotida muhim o'ren tutuvchi ma'naviy va axloqiy poklik, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi. Ularning asosida yosh avlodga oila va umumiyligi o'rta ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va samarasi mujassamlashgan. Binobarin, o'sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos, barkamol inson bo'lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari - aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tarbiyalar bilan qatorda musiqiy tarbiyani tashkil etishga ham yangicha nuqtai nazardan yondashish, ularning samarali yo'llarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa ta'lim-tarbiyadagi eng muhim vazifalardan biridir. Hech kimga sir emaski, bugungi tezkor davrga hamohang ravishda inson dunyoqarashi, tafakkuri, tarbiyasi ham o'zgarib bormoqda. Biroq fan-texnika qanchalik jadal rivojlanib, jamiyat hayotida muhim joy olib, ishlab chiqarish jarayonlarining tezlashuviga qanchalik samarali ta'sir etmasin, yoshlarni komil inson etib tarbiyalash, ularga jahon andozalari darajasida ta'lim berish aslo mazmun-mohiyatini yo'qtgani yo'q. Fikrimizcha, bu borada chinakam musiqa namunalari va ularda ilgari surilgan ezgu g'oyalarni yosh avlod ongiga singdirib borish yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ijobiy natijalarni beradi. Zotan, musiqaning ajoyib sehrli kuchi, mo'jizakor ta'siri haqida fikr yuritgan Abu Nasr Forobiy «Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida» asarida shunday deydi: «Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qtgan odamni tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xalqni mukammal qiladi va muvozanatini saqlab turadi». Musiqa tarbiyaning tizimliligi esa tarbiyaviy jarayonda umumiylikni tashkil etadi, chunki musiqiy tarbiyaviy jarayonlar bir nechta tizimlarning turli xususiyatlaridan iborat. Aytish mumkinki, musiqa tarbiyaviy jarayonlar bu tarbiyaviy tizim holatlarining ketma - ket almashinuvlidir. Musiqiy tarbiyaviy jarayonni tizimli ravishda ko'rib chiqish, musiqa tizim va jarayonning tuzilmaviy xususiyatlarini, shunindek, ular o'rtasidagi fuktsional aloqalarning ajratib ko'rsatilishini ifodalaydi. Musiqa o'qituvchi uchun har bir musiqiy tarbiyaviy uslubning o'ziga xos xususiyatini, mohiyatini, birining boshqasiga ta'siri natijasida o'zgarishini anglab yetishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek mumtoz kuy va ashulalari shu jumladan maktab o'quvchilarning musiqiy ongi, fikrlashi va dunyo qarashini kengaytirish uchun asosiy tarbiya omili hisoblanadi. Bu borada olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki mumtoz musiqamiz ya'ni bir necha asrlik tarbiyaviy ahamiyatga ega durdona asarlar o'quvchilarni yaxshilik sari yetaklashi va ularga boy madaniy merosimiz xalqimizning o'tmishi, qadim madaniy meroslarimiz haqida chuqr mohiyatga ega malumot berib ularni komil inson ruhida tarbiyalab bermoqda.

ASOSIY QISM

Musiqa inson qalbiga chuqur yo'l topadi va uni ko'rkam kiladi. U kishi ruhining aqliy va axloqiy tomonlariga quchli ta'sir ko'rsatib, tuyg'uli (emotsional), estetik hissiyotini faollashtiradi. Shu bois umumiy ta'limda o'quvchilarning musiqa madaniyatini tarbiyalash va shakllantirish musiqa ta'limi va tarbiyasining bosh maqsadi qilib belgilangan. O'quvchilarning musiqa madaniyati degan ibora ularning turli janrlardagi xalq musiqasi (musiqiy folklor, doston, kuy va ashula, maqom) hamda kompozitor va bastakorlar yaratgan musiqa asarini tinglaganda uning ifoda vositalariga e'tibor berib, mazmun mohiyatini anglab olish, idrok etish, unga tavsif bera olish, g'oyaviy-badiiy mazmunini his etish, undan ma'naviy, badiiy bahra olish va ayrim ohanglarni yodga keltirib, xirgoyi qilish kabi musiqiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Yoshlarni ommaviy musiqiy – estetik tarbiyasini muvofaqiyatli amalga oshirishda o'quvchilarni hamma fanlar asoslari bilan qurollantiradigan umumta'lim maktabi yetakchilik qiladi. Inson dastlabki estetik tarbiyani asosan mакtabda olishi mumkin. U bir umrga go'zallikni his etishni, san'at asarlarini anglash va baholashni, badiiy ijod bilan oshno bo'lishni avvalo shu dargohda o'rgana boshlaydi. Umumta'lim mакtabi musiqa madaniyati darslari o'quvchilarda musiqani tinglash va idrok etish, mashq va qo'shiqlar kuylash, musiqa savodxonligini o'zlashtirish, musiqa ijodkorligi va musiqaga ritmik jo'r bo'lish, bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish yo'li bilan ularni hozirgi kunda ommaviy G'arb musiqa madaniyatidan andaza olib ko'plab yaratilayotgan ohangi xarob, bir so'zni ko'p marotaba takrorlash asosida davom etadigan, saviyasi past, bema'ni qo'shiqlar ta'siridan saqlash kabi muhim musiqiy pedagogik vazifani amalga oshiradi. Shuning uchun o'quvchilarni barcha yo'naliш va janrlardagi musiqa asarlari, xususan maqom namunari bilan oshno qilish, hamda ularning tавсиya etilgan badiiy yuksak namunalarini o'rganish jarayonini usuliy takomillashtirishni dastlab hamma bolalar o'qishi zarur bo'lgan umumta'lim maktabidan boshlash ma'qul deb o'ylaymiz. Masalaning zamonaviy holatini aniqlash maqsadida olib borilgan pedagogik kuzatuvlarimiz umumiy musiqiy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning aksariyati ular uchun birinchi navbatda zvrur bo'lgan amaliy cholg'u va vokal (xonandaliik) faoliyati bo'yicha meyoriy talablar darajasidagi ijro ko'nikmalariga ega bo'limganliklari ko'zga tashlanadi. Ayrim o'qituvchilar mакtab musiqa darsligida maqomlar haqida berilgan ma'lumotlarni biladilar, ammo maqomlardan berilgan parchalar ohangini biror cholg'uda chalib, yoki kuylab berishda qiynaladilar. Bunday o'qituvchilar darsda asosan o'quvchilarga maqomlar borasida berilgan matnlarni yozdirib, ba'zan ularning audio yozuvlarini tinglatish bilan kifoyalananadilar. Shunday o'qituvchilar ham borki, ular musiqa bakalavri dilomiga ega bulsalarda, makom san'ati haqida yotarli nazariy ma'lumotga

ham, amaliy iじro ko'nikmalariga ham, dastur doirasidagi maqomlar audio yozuvlriga ham ega emaslar. Ular darslikdagi matnlarni o'qib yozdirishdan nariga o'ta olmaydilar. Musiqa madaniyat darslari DTS lari talabi asosida nafaqat maqomlar balki. Barcha musiqa darslari materiallarini yaxshi biladigan, darslarda ulardan samarali foydalana oladigan o'qituvchilar ham bor. Ammo ularning soni ozchilikni tashkil etadi.

O'zbek mumtoz musiqasi serjihat va buyuk ma'naviyat namunasi sifatida namoyon bo'lib kelgan. Binobarin, ushbu musiqa namunalari ijod, san'at turi bo'lib qolmasdan, balki madaniyatning muhim bir qismi sifatida ham o'rganilishi lozim. O'zbek mumtoz musiqasi shunday keng ko'laliki, uning qamrab olmagan mavzulari kamdan-kam topiladi. Xalq o'zi kuylayotgan ashulalarga, dostonlariga, maqomlari va cholg'u kuylariga insonni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashga ta'sir ko'rsata oluvchi tarbiyaviy mavzularni singdira olgan. Ushbu musiqa numunalari orqali xalq yuragidagi dardlarini, mehr-muhabbatini, ishqiy kechinmalarni, orzu-istikclarini bayon qilib kelgan. Ta'kidlash lozimki, o'rta ma'lumot beruvchi musiqa ta'lim tizimida o'zbek mumtoz musiqasini alohida fan sifatida o'rganish birinchi marta amalga oshirilmoqda. Bu yosh avlodning o'tmishni, o'zining boy merosini mukammalroq bilishi va idrok qilishi uchun zamin tayyorladi. Mumtoz musiqamizni o'rganish, uni amalda o'zlashtirish musiqa va san'at kollejlari hamda akademik litseylar talabalarining milliy g'ururini shakllantirish uchun asosiy omillardan bo'lib qoladi. O'zbek mumtoz musiqasi haqida alohida mukammal ma'lumot berishning bosh maqsadi mazkur o'quv muassasalari talabalarini o'zbekona musiqa an'analarini, qadriyatlarini ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shishdir. Xalqimiz va uning namoyandalari tomonidan yaratilgan ashula va katta ashulalar, dostonlar, maqomlar va turli shakllardagi cholg'u kuylari hamda ularning iじro uslublari va usullari yuzasidan ma'lumot hosil qilish, ular haqida mustaqil fikrni shakllantirish o'zbek mumtoz musiqasi fanining vazifalari hisoblanadi. O'zbek xalqining musiqa madaniyatni ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, u ko'pchilik sozanda va xonandalar avlodining faoliyatida qaror topgan an'anaviy musiqa san'ati ekanligi haqida guvohlik beradi. An'anaviy musiqa - bu badiiy jarayon bo'lib, unga xalq tomonidan yaratilgan, asrlar osha bizgacha yetib kelgan xalq musiqa ijodi yoki musiqa folklori va yetuk sozanda-bastakorlar tomonidan ijod etilgan mumtoz musiqasi kiradi. Bu ijodiyot namunalari og'zaki an'anada saqlanib, sayqal topib, barkamol musiqa asari sifatida rivojlanib kelmoqda. Nazarimizda, o'quvchilarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda musiqiy tarbiyani avvalo, oilada tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki bola shaxsini shakllantirishda va rivojlantirishda oiladagi va maktabdagagi muhitning ta'siri juda katta bo'lib, boladagi eng muhim individual xususiyatlar oiladagi va umumta'lim dargohidagi mavjud ijtimoiy psixologik muhit ta'sirida shakllanadi. Bunda otaona, oila

a'zolari o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabat, san'at, madaniyatga bo'lgan munosabatlarni ham qayd etish joiz. Ma'lumki, yaxshi oilaviy muhitda tarbiyalangan bolaning hayot haqidagi, turli voqeа-hodisalar, urf-odatlar, san'at, madaniyatga oid taassurotlari ko'pincha ijobiy tarzda kechadi. Oiladagi birgalikda televizor ko'rish, konsert tomosha qilish, teatr, konsert tomoshalariga borish, o'z taassurotlarini o'rtoqlashish kabi muloqotlar bolalar dunyoqarashini o'stirib, hayotiy voqeа-hodisalarni aks ettiruvchi badiiy adabiyot, san'at musiqani mohiyatini tushinishga, badiiy va g'oyaviy idrok etishga olib keladi. Ma'lumki, tarbiya inson ongi, his-tuyg'ulari, tasavvuri, e'tiqodi, dunyoqarashi, xatti-harakatlari va xulq-atvoriga doimo ijobiy ta'sir o'tkazib kelgan. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, musiqiy tarbiya go'zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, shodlik va kulfatni anglashga ham o'rgatadi. Musiqa tili barchaga tushunarli va yaqin bo'lgani uchun musiqa tovush tovlanishlari orqali fikr va tuyg'ularni aks ettiradi. Musiqiy tarbiya faqat narsa va hodisalarning mohiyatini anglash, go'zal jihatlarini ko'ra bilishnigina emas, balki ichki go'zallikni his qilish xislatini ham tarbiyalaydi. Insondagi xulqiy go'zallikni qadriga etishga undaydi. Bunda musiqaning falsafiy mohiyati ham namoyon bo'ladi. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, ajoyib musiqa asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sug'orilgan bo'lib, ularda hayot va o'lim, shaxs va jamiyat, ezgulik va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks etadi. Ko'pchilik yaxshi biladiki, ertaklarda qahramon musiqa orqali ulkan dev yoki ilonni sehrlab, uning changalidan o'zi yoki sevgan qizini xalos etadi. Chuqurroq nazar tashlaydigan bo'lsak, buning zamirida musiqaning ko'ngilni ezgulikka undovchi san'at ekani o'z aksini topgan. Shu ma'noda, o'sib kelayotgan avlod uchun musiqa ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi vosita hisoblangan. Musiqa ashula va raqs tarkibida ham vujudga keladi. Keyinchalik esa badiiy ijodning mustaqil turiga aylanadi. U o'ta o'ziga xos badiiy ifoda «til»iga ega bo'lib, maxsus ishlab chiqilgan va tanlab olingan tovushlar ana shu «til»ning manbaidir. Albatta, musiqa shaxsni shakllantirish, uning ijobiy fazilatlarining yo'nalishlarini o'z-o'zidan belgilab bermaydi. Zotan, tarbiyaviy ta'sirning eng muhim jihatlari musiqiy asarning g'oyaviy mazmuniga bog'liqdir. Ana shu bilan musiqiy-estetik tarbiyaning vazifalari belgilanadi. Musiqiy-estetik tarbiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u shaxs sifatida shakllanayotgan bolalarning hissiyoti va fikrlarini takomillashtiradi. Shu bois bolalar tinglaydigan yoki ijro etadigan musiqa asarlari o'z xarakteri, janri, takror bayon qilish usullariga ko'ra har xildir va ular o'rtasidagi aloqa o'xshashligi va farqi, muvofiq va zidligiga ko'ra o'rganiladi. Qayd etish joizki, inson shaxsining har tomonlama kamol topishi aqliy, axloqiy estetik va jiemoniy tarbiyaning uzviy aloqasi tufayli ro'yobga chiqadi. O'z navbatida g'oyaviy-axloqiy ta'sirini amalga oshirishga to'g'ri ishlab chiqilgan hamda bolalarning yosh imkoniyatlariga muvofiq tanlangan repertuar

samarali yordam beradi. Musiqa mashg'ulotlarida bilish va aqliy faoliyatlar ham faollashgani bois odamlar musiqani diqqat berib tinglash barobarida ko'plab ma'lumotlarni bilib oladi. Biroq bunda ular musiqaning eng umumiyligini xususiyatlaridan eng yorqin obrazlarnigina idrok etadilar. Biroq bu jarayonda tinglash, uning ifoda vositalarini farqlash, qiyoslash, ajratish vazifalari qo'yilgan bo'lsa ham emotsiyonal munosabat o'z ahamiyatini yuqotmaydi. Bu aqliy harakatlar inson hissiyoti va kechinmalari doirasini boyitadi hamda kengaytiradi. Musiqa san'at sifatida ijtimoiy ong shakli bo'lib, u kishining his-tuyg'ularini ifodalash bilan birga voqelik va davr ruhini ham o'zida aks ettiradi

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi kunda o'rta maktablarda musiqa tarbiyasi, o'quvchi shaxsiyatining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadigan san'at hisoblanadi. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib umrbod musiqadan zavq oladi va cheksiz ma'naviy kuch-qudratga ega bo'ladi. Shu sababli musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, insonni atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga, ularni qadrlashga o'rgatadi, insonda yuksak va ma'naviy dunyoqarashni shakllantiradi. Bu jarayonda shaxsnинг ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarning individual ifodasi, ijtimoiy ahamiyatga molik xususiyatlar kombinatsiyasi, inson ijtimoiyligi shakli ekanini nazarda tutadigan bo'lsak, bu borada musiqaning ahamiyati yana bir bor oydinlashadi va musiqiy ta'lim tizimida yangicha yondashuv borasidagi izlanishlarimiz zamонавиy axborot - pedagogik texnolgiyalarini joriy qilish bilan bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Bu metodikadan foydalanish musiqa o'quv - tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishga olib keladi, hamda shaxsni musiqiy tomondan tarbiyalash va rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. R.Yunusov "O'zbek xalq musiqa ijodi" T.,1992y 2-12 bet
2. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 17 ноябрдаги "Ўзбек миллий мақом санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ти ПҚ-3391 сонли қарори.
3. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 17 ноябрдаги "Ўзбек миллий мақом санъатини янада ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисида"ти ПҚ-3391 сонли қароридан.
4. Mannopov, S., Karimov, A., Qurbanova, B., & Dilobar, J. (2022, February). THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF MUSIC. In Archive of Conferences (pp. 49-52).

5. Sultonali Mannopov, A., Abdusalom Soliev, U., & Tokhir Shokirov, R. (2021). Development of Uzbek National Singing Art during Independence. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 6845-6853.
7. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. EuroAsia Conferences 1 (1), 34-36.
8. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
9. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Формирование эстетического воспитания детей на примере Бухарских фольклорных песен. «MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS» collection of scientific works of the international scientific conference Issue 4(260 Warsaw, Poland 2020. P. 139-141. 10. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор қўшиқларини ўргатиш жараёнини лойихалаш. Бухоро мусиқа фольклорининг тарихийназарий ва амалий масалалари. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. 2020 йил, 6 ноябрь. Бухоро, 2020- Б. 107-111
10. Turaevich, Y. J. (2022). The Polishing of Music in Central Asia for Centuries. *Open Access Repository*, 8(05), 66-69.
11. Ярашев, Ж. Т. (2021). Музыкальная терапия. *Scientific progress*, 1(5), 641-647.
12. Yarashev, Jurabek Turaevich. "Research on Bukhara music heritage through axiologic features." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7.12* (2019): 2181-1601.